

VOLUME-1, ISSUE-6

“Mahbub ul - qulub”da diniy atamalarning qo‘llanishi

Muminova Umida Qarshiyevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta ‘lim nazariyasi kafedrasи o ‘qituvchisi

Rajapova Malika Tursunovna

Denov Pedagogika kolleji

Pedagogika-psixologiya kafedrasи o ‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug‘ mutafakkir asarda o‘rin olgan Qur’oni karim oyatlari va hadislari, umuman islom ta‘limotining mazmun-mohiyatini tushunarliroq qilib yetkazish maqsadida nafaqat turkiy teonimlar, shuningdek, o’sha davrda faol qo‘llanishda bo‘lgan arabcha, forscha leksemalardan ham o‘z o‘rnida foydalangan.

Kalit so‘zlar: teonimlar, qadimgi turkiy til, sememalar, o‘zlashmalar, qoraxoniylar davri, sinonimik qatorlar, forscha leksemalar, oliy diniy unvon, musulmon ruhoniylari.

Ma’lumki, musulmon Sharqi dinni doim ulug‘lagan, hatto davlat boshqaruvida umummanfaat va g‘oyalar mushtarakligini ta‘minlashga chaqirgan. Shu ma’noda, Alisher Navoiyning komil inson g‘oyasi davlatni boshqarishda, uning tasavvuridagi ideal, mukammal jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida, odil shoh haqidagi fikr-o‘ylarida, hukmdorning raiyatga munosabatida, diniy-huquqiy qoidalarga rioya qilishida o‘z in‘ikosini topadi. Ulug‘ alloma o‘z asarlarida komil inson g‘oyasini ham dunyoviylik, ham diniytasavvufiy nuqtai nazardan tavsiflagan. Alisher Navoiy islomi bilimlarni puxta egallagan buyuk olim sifatida turkiylarning ijtimoiy-axloqiy va diniy qarashlarini talqin qilishda bag‘rikenglik, tolerantlik tamoyillariga to‘la amal qilgan. Binobarin, “Mahbubul qulub” asarida mutafakkirning odil va zolim podishohlar, el-ulus, jamiyat haqidagi qarashlari Qur’oni karim va hadisi shariflarga, diniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligiga tayanadi. Shu bois asarda ko‘plab diniy atamalarni uchratamiz. Xususan, **Täyri** atamasi “butun borliq, barcha jonli-jonsiz mavjudotlar yaratuvchisi” ma‘nosida qo‘llanilgan: ...*tariqati mašāyix istilāhātida vusul ahlidürlär, bularni täyriga äşıq desä bolur* (MQ,53). Qadimgi turkiy tilda täyri so‘zi ikki ma’noda ishlatilgan: “ulug‘ tangri, xudo”; “ko‘k, osmon”. Bu so‘zning “xudo, iloh” ma‘nosи ham turli dinlarda turlicha tushunilgan. Ko‘k tangri diniy tushunchasidagi Kök täyri “ko‘kdagi tangri”ni bildirgan. Moniylik dinida esa quyidagi tasavvurlar amal qilgan: *Kün Täyri – Quyosh tangri, Ay Täyri– Oy tangri, Yaşın Täyri - Yashin tangri, Yel Täyri – Yel tangri. Turk buddistlar tushunchasida Täyri täyrisi – Oliy tangri Buddadir. Musulmon turklarda Täyri – Haq taolo(Alloh)dir*¹. Bundan tashqari, “Oltun (tusli) yorug” yodgorligi va Yenisey bitigtoшlarida leksemaning “hukmdor, janob”, «diniy» semalari kuzatiladi: *Bu sabiğ eśitip, men öträ olarqa inča tep tedim aya edgülärim täyrlärim* – bu so‘zni eshitib, ularga shunday dedim: ey mening yaxshilarim, hukmdorlarim!; *Täyri elikkä elcisi ertim* – men diniy qabilalar uyushmasining elchisi erdim (DTS,544). “Devon” da quyidagi qaydlarni o‘qiyimiz:

Tün kün tapun täyrigä boynamağıl

Qorqup anjar eyməni oynamağıl.

Kecha-kunduz ulug‘ tangriga ibodat qil, yo‘ldan ozib adashma. Xudodan qo‘rq, undan uyal, undan qo‘rqib, o‘ynashdan saqlan. Xudo halok qilg‘ur kofirlar osmonni *täyri* deydilar. Shuningdek, ular ko‘zlariga katta ko‘ringan har narsani, chunonchi, katta tog‘, haybatli yog‘ochni ham täyri deb ataydilar. Shuning uchun ham ular shunga o‘xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag‘on odamni *täyrigän* deb atashlari ham shundandir².

¹Содиков К. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 181. Қаранг: Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуфий лексикасининг систем тадқиқи. Фиолол. фан. док. дисс. автореф. –тошкент, 2021.

²Абдушукоров Б. Туркий манбалар лексикаси. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – Б.143.

VOLUME-1, ISSUE-6

Tengri “Boburnoma”da “Alloh” so‘zining sinonimi sifatida shaxsning sidqidildan e’tirofi berilgan o‘rinlarda qo‘llangan: *Tengri menga boshdin jon berdi*³. Asarda tadqiq etilayotgan so‘zning arabcha **Allāh**: *Ālim keräkkim, mutaqqiy bolsa va āgāh va ayturǵa qāla Allāh, qāla Rasullāh* (MQ,18); **Ilāh**: *Ilāhi, bizgä tavfiqij birlä hamrāhlıq ber* (MQ,53); **Haq**: *Ādil pādshāh haqdin xalāyiqa rahmatdur* (MQ,10); forsiy **Xudā**: *Xudā sözi yoq esä, Mustafā sözi* (MQ,19); **Yazdān** ma’nodoshlari ham keltirilgan: *Zuhdu fisq elgä taqdiri Yazdāndindur* (MQ,74). Shuningdek, asarda xudoning sifatlarini bildiruvchi boshqa so‘zlar ham qo‘llanilgan: **Rab** (ega, xoja), **Xāliq** (yaratuvchi), **Jabbār** (bandalari ishini isloh etuvchi), **Zuljalāl** (sharaflı), **Rahmān** (mehribon), **Rahim** (rahmli), **Karim** (karamli), **Ğaffār** (kechiruvchi) va hokazo.

“Xudoning xohish-irodasini bandalarga yetkazuvchi kishi” **payğambar** deb nomlangan: *kāzibi bebākka payğambar šar'i hākimiliğiga ne munāsib* (MQ,17). Tadqiq qilinayotgan asarda ikki o‘rinda kelgan bu tojikcha ot “xabar” ma’nosini anglatadigan *payg‘om* so‘ziga “keltirmoq” ma’nosini ifodalagan *burdan fe’lining bar* hozirgi zamon asosini qo‘shib hosil qilingan (O‘TEL,III,181). Manba lug‘at boyligida o‘zlashmaning arabcha **mursal**: *Anbiyāyi mursalin yetgändit nazarlarin maqsuddin almay* (MQ,53); **nabiy**: *Nabiy oğli tamuğni qildi maskan* (MQ,84); **rasul**: ...*xudā va rasul yoliğa qadam ursa* (MQ,25) kabi sinonimlarini ham ko‘rish mumkin. **Rasul** teonimi dastavval “Qutadg‘u bilik” dostonida uchraydi (DTS,476). “Hibatu-l-haqoyiq”da “payg‘ambar” - **rasul** uning sifatlari esa *habib*, *xalq talusi* (xalqning sarasi), *kiši qutluğī* (kishilarning qutlug‘i) deya ta’riflangan⁴. Termin **rasūl** (**un**) shakliga ega; o‘zbek tiliga **Ӯни** **Ӯни** unlisiga almashtirib qabul qilingan: **rasūl** → **rasul**; ko‘p ma’noli **rasila** fe’lining “yubordi” ma’nosida hosil qilingan I bob masdari bo‘lib, o‘zbek tilida atoqli ot sifatida ishlatiladi (O‘TEL,II,354). Manbalarda qayd etilishicha, rasul islomda Alloh tomonidan tanlab olinib, vakil qilingan va targ‘ibot yuritish, hidoyatga da’vat qilish vazifasi topshirilgan, ilohiy kitob nozil qilingan payg‘ambar. Nabiy – kitob nozil qilinmagan payg‘ambar. Shu bois, har bir rasulni nabiy deb atash mumkinligi, ammo nabiylarni rasul deb bo‘lmasligi qayd qilingan⁵.

O‘rganilayotgan manbada bir joyda qayd etilgan **şayxulislām** “islom dini shayxi”, “diniy qonunlarni sharhlovchi” mazmunini bildirib, musulmon ruhoniylari boshlig‘ining unvoni, oliv diniy unvon hamda shu unvonga ega kishi, bosh ruhoni (O‘TIL,IV,535) sanaladi: ...*nazm ahliniñ muqtadā va imāmi hazrati şayxulislām...* (MQ,20). Istiloh *shayx+islom* so‘zlarining birikishidan shakllangan bo‘lib, **shayx** arabcha so‘z *şayx(un)* shakliga ega; ko‘p ma’noli *şâxa* fe’lining “keksaydi” mazmuni bilan hosil qilingan bo‘lib, “qariya”, “keksa”, “urug‘”, qabila boshlig‘i”, “diniy rahbar”, “olim”, “murabbiy” kabi sememalarini anglatadi (O‘TEL,II,496). **بِسْلَام**→**islām** asli **salima** fe’lining «bo‘ysundi», «bosh egdi» ma’nosini anglatuvchi IV bob shakli **بِسْلَاتَا** fe’lidan hosil qilingan masdar bo‘lib, arab tilida «Ollohgaga itoat qilish», musulmon bo‘lish, **al** artikli bilan ishlatilganida esa, «islom dini» ma’nosini anglatadi. Bu so‘z o‘zbek tilida erkak kishining ismi sifatida ham qo‘llaniladi (O‘TEL,II,175).

Yozma manbada dinda ruxsat etilgan narsalar arabcha **halāl**, taqiqlangan, rad qilingan ishlar arabcha **harām** terminlari bilan nomlangan: *Halāl rozi kasbigä masāfatlar qat’ etgän* (MQ,26); *Kim, me’dalarü harām yerdin tolmas* (MQ,16). Ushbu atamalar dastlab “Qutadg‘u bilig” asarida kuzatiladi: *halāl ham harām* (DTS,198).

Halal istilohi **halāl** (**un**) shakliga ega; o‘zbek tiliga **hoyi hutti** undoshini **h** undoshiga, **ā** unlisini **ā** almashtirib qabul qilingan: **halāl** → **halāl (halol)**; “qoidaga rioya

³Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 178.

⁴Содиков К., Омонов К. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. –Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2010. –Б.94.

⁵Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. –

Б.257.

VOLUME-1, ISSUE-6

qilindi, qonuniy bo‘ldi” ma’nosini ifodalovchi **halla** fe’lidan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, arab tilida “qoidaga rioya qilingan, qonuniy”, o‘zbek tilida esa “shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan” ma’nosida ishlataladi (O‘TEL, II, 569). **Haram** so‘zi **harām (un)** shakliga ega; o‘zbek tiliga **hoyi hutti** undoshini **h** undoshiga, ă unlisini ă almashtirib qabul qilingan: **harām** → **halāl (halol)**; **haruma** fe’lining “taqiqladi” ma’nosini bilan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, “yeb-ichish, foydalanish taqiqlangan” ma’nosini bildiradi (O‘TEL, II, 574).

So‘z mulkinining sohibqironi Tangriga imon keltirgan kishini arabcha **mo’mín**, **musulmān**, qulluq qilish, sig‘inish, topinish va uning amalini arabcha **tāat, ibādat** (MQ,96), toat-ibodatni kanda qilmaydigan, xudojo‘y, taqvodor inson **ābid** (MQ,29), **pārsā**, tarki dunyo qilgan dindor kishi **zāhid**, dunyoga bemayl, behavas bo‘lishlik, nafsiyi tiyishlik; taqvodorlik **zuhd** deya zikr etgan: *Ya ādamu mo’mīnu musulmān hukmi* (MQ,31); *har nečā tāat qīlsaq, tiliyni uzr ayturğā qāyil tut* (MQ,96); *Ādamiyiň yaxšırağı uldurkim, pārsā va pāk bolğay* (MQ,89); *Köp artuqraqki, zāhidi zarqparast* (MQ,89); *ul vaqt zuhdu taqvāğā ne e’tibār* (MQ,24). **Momin**, **musulmān** teonimlari ilk marta “Qutadg‘u bilig” dostonida ko‘ramiz: *qamuğ mominiğ...* - barcha mo‘minni (DTS,347). Ayni paytda, **musulmān**, **pārsā** leksemalari tahlil qilinayotgan yodnomada turkiy **-lıq/-lığ** qo‘shimchasi bilan birikib ot yasagan: *Insāoniyat va musulmānlıqdin yīraq* (MQ,31); *munājāt ahliğā pārsālığ va xudparastlığ yigitlikdä benazir* (MQ,86).

Musulman teonimi aslida arabcha **muslim** so‘ziga tojikcha **-on** ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan; keyinchalik **-on** qo‘shimchasing ko‘plik ma’nosini ifodalashi uqilmay ketgan; **muslimon** so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi i unlii talaffuz qilinmay, sl tovushlari oralig‘iga u unlii kiritilgan: **muslimon** → **musulmon** (O‘TEL,II,297).

Tāat istiloхи **tāyat (un)** шаклига эга бўлиб, “бўйсунди” маъносини ифодаловчи **tāya** феълидан **-at(un)** кўшимчаси bilan xosil қилинган (ЎТЭЛ,II,154).

ibādat →**ibādat** «sig‘indi», «sajda qildi» ma’nosini anglatuvchi ‘**abāda** fe’lining I bob masdari bo‘lib, «sig‘inish», «Ollohga qulluq qilish» ma’nosini bildiradi (O‘TEL,II,154).

Arabcha **abid ‘ābid (un)** shakliga ega; arab tiliga cho‘ziq fathali **ayn** tovushini ă ga almashtirib qabul qilingan: ‘**ābid** → **âbid (obid)**; ‘**abada** fe’lining “sig‘indi” ma’nosini bilan yasalgan (O‘TEL,II,335).

Zahid istilohi **zāhid (un)** shakliga ega; o‘zbek tiliga cho‘ziq ă unlisini ă almashtirib qabul qilingan: **zāhid** → **zāhid (zohid)**; asli ko‘pma’noli **zahada** fe’lining “har qanday istakni tark etdi”, “kishilar bilan muloqotni tark etdi” ma’nolari bilan hosil qilingan (O‘TEL,II,151).

Demak, ko‘rinadiki, ulug‘ mutafakkir asarda o‘rin olgan Qur’oni karim oyatlari va hadislari, umuman islam ta’limotining mazmun-mohiyatini tushunar- liroq qilib yetkazish maqsadida nafaqat turkiy teonimlar, shuningdek, o‘sha davrda faol qo‘llanishda bo‘lgan arabcha, forscha leksemalardan ham o‘z o‘rnida foydalangan. Aytish kerakki, asarda qo‘llangan teonimlarning aksariyatini arabcha istilohlar tashkil etadi va ularning ayrimlari dastlab o‘rganilayotgan manbada ko‘zga tashlansa, ko‘philigi ilk marta Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llana boshlagan. Bu esa, o‘z navbatida, qoraxoniylar davrida islam dinining keng quloch yoygani, asarda sinonimik qatorlar vujudga kelganidan dalolatdir.

Shartli qisqartmalar

DTS – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. -676 с.

MK – Mahmud Koshg’ariy. Devonu lug’otit turk / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. I-III. –T.: Fan, 1960-1963.

MQ – Navoiy. Mahbub ul—qulub. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik. O’n to’rtinchchi tom. – Toshkent: Fan. 1998.

O‘TEL-1) Rahmatullaev SH. O’zbek tilining etimologik lug’ati (turkiy so’zlar). -T.: Universitet, 2000. -599 b.

2) Rahmatullaev SH. O’zbek tilining etimologik lug’ati. II (arab so’zları va ular bilan

VOLUME-1, ISSUE-6

hosilalar). -T.: Universitet, 2001. – 599 b.

3) Rahmatullaev SH. O'zbek tilining etimologik lug'ati. III (forscha-tojikcha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). -T.: Universitet, 2009. -284 b.

O'TIL—O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V. -T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. –T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. –B. 181. Qarang: Axatova M. O'zbek tili tasavvufiy leksikasining sistem tadqiqi. Fiolol. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2021.
2. Abdushukurov B. Turkiy manbalar leksikasi. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2022. – B.143.
3. Xolmanova Z. "Boburnoma" – til qomusi. –Toshkent: Akademnashr, 2021. –B. 178.
4. Muminova, U. Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIST RESEARCH JOURNAL ISSN, 2776-0979.
5. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 336-340.
6. Ra'no C., Karshiyevna M. U. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 117-120.
7. Muminova U. K. PHYTONYMS IN THE WORK" MAHBUB UL-QULUB" //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 46-50.
8. Qarshiyevna M. U. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013.
9. Shabbazova , D. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRYATLI YONDASHUV. MONOGRAFIYA. Termiz-2023. Interpretation and Researches, 1(1).
10. Ruzikulovna, S. D. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. European Scholar Journal, 2 (7), 32-33.